

Biz iste'dodli farzanlarimiz bilan, ularning jahon sport maydorlari, xalqaro fan olimpiadalari, madaniyat va san'at olamida erishayotgan katta yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o'ziga xos qobiliyati va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro'yobga chiqarish – bu o'ta muhim vazifani nafaqat ota-onalarning ezgu maqsadi, balki jamiyatimizning burchi sifatida o'rta qo'yish kerak, deb hisoblayman.

Islam KARIMOV

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong


# YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

2007-yil  
17 - dekabr  
N:51  
(66644)

## XUSH KELGIN, «YOSHLAR YILI»M!



Aziz o'quvchilar, har bir yangi yilimizning yurtboshimiz tomonidan ramziy nomlanishi ajoyib bir an'anaga aylanib qolganini yaxshi bilasiz-a?

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 15 yilligi munosabati bilan «Turkiston» saroyida bo'lib o'tgan tantanali marosimda kirib kelayotgan yangi – 2008-yilimiz «Yoshlar yili» deb e'lon qilindi. Bu ham navqiron aylodning iqtidorli va iste'dodli vakillari bo'lmish aka va opalaringizga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va e'tiborning yana bir namunasidir.

Xayrli va fayzli 2007-yilimiz o'z poyoniga yetayotgan, umidbaxsh yangi yilimiz eshik qoqayotgan ayni kunlarda yoshlar bilan uchrashib, fikr va mulohazalari, yangi yil tilaklari bilan o'rtoqlashdik:



Elyor ESHCHONOV:


– Yanagi yilimizning «Yoshlar yili» deb nomlanishi zimmamizga yana-da kattaroq mas'uliyat yuklaydi. Men Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida tahsil olish bilan birga, mana shu tahririyatda mehnat qilib, kompyuter savodxonligi borasidagi bilimlarimni boyitib bordim. Til o'rganyapman, ilmiy ish qilishni rejalashtiryapman. Nasib bo'lsa, magistraturani chet elda tahsil olish niyatidaman.

Bir so'z bilan aytganda, yurtboshimiz ishonchini oqlashga intilib yashayapman.



Aziza ZOIROVA,  
TDSHI qoshidagi akademik-litsey  
talabasi:


– Yurtboshimiz tomonidan 2008-yilning «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi har bir yosh kabi meni ham behad quvontirdi. Shundoq ham imkoniyatlarimiz bisyor edi, ular safi yana-da kengayadigan bo'ldi. Har bir yosh puxta bilim olsa, egallamoqchi bo'lgan kasb-hunarini shunchaki emas, chin dildan egallasa, ertangi kunimiz yana-da porloq bo'ladi. Zero, biz yoshlarning yurtimiz oldidagi asosiy farzimiz va qarzimiz ham shu – ajoddolarga munosib avlod bo'lish!



Bobur  
NAZARMUHAMMEDOV,  
O'zMU xorijiy filologiya  
fakultetining 3-bosqich talabasi:

– «Yoshlar yili»da hayotimda katta o'zgarishlar bo'lishiga ishonaman. Chunki yurtboshimiz butun boshli yilni biz yoshlarga bag'ishladilar. Bizlar uchun yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlardan unumli foydalanishni o'z burchim deb bilaman. Til o'rganib, o'zbek adiblarining asarlarini chet tillariga tarjima qilmoqchiman. Puxta bilim olib, Prezident stipendiysi sohibi bo'lishni o'z oldimga olyi maqsad qilib qo'ydim.

# 23 - dekabr – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni

Asliddin Ashurbayevich  
RustamovDiloram Gafurdjanovna  
TashmamedovaAkmal Kolmatovich  
SaidovIslom Abdug'aniyevich  
Karimov

– Bobojon, har kuni televizor orqali 23-dekabrdan bo'ladigan saylovlari haqida gapirishyapti. Bu nima degani? – so'raydi bolakay qiziquvchanlik bilan.

**Muhim sana**  
– Darhaqiqat, 23-dekabr – yurtimiz hayotida muhim ahamiyatga molik kun

## BOBO VA NABIRA SUHBATI

hisoblanadi. Biz shu kuni yurtimiz Prezidentini saylaysiz, bolajonim, – javob beradi boba.

– Kimni saylaysiz? Unda men ham qatnashamanmi?

– Yurtimizda faoliyat yuritayotgan beshta partiyadan hamda Saylovchilar tashabbuskor guruhi tomonidan Prezidentlikka nomzodlar ko'rsatilgan edi. Yaqinda nomzodlar ro'yxati e'lon

qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod qilib O'zbekiston Xalq demokratik partiysi tomonidan Asliddin Ashurbayevich Rustamov, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiysi tomonidan Diloram Gafurdjanovna Tashmamedova, Saylovchilar tashabbuskor guruhi tomonidan Akmal Kolmatovich Saidov hamda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiysi tomonidan Islom Abdug'aniyevich Karimov ko'rsatildi. Prezidentlikka ayol kishining nomzodi ko'rsatildi, yurtimiz tarixida hali bunday voqeа bo'lmagandi.

Saylovda sening ishtirokingga kelsak, biroz kutishingga to'g'ri keladi, bolajonim. Saylash huquqi 18 yoshdan, saylanish huquqi esa 21 yoshdan beriladi. Lekin saylov kuni u yerga seni ham albatta olib boraman.



Poytaxtimizning Sobir Rahimov tumanidagi 185-maktabning 4-sinf o'quvchisi Fazilat JUMABOYEVA bo'sh vaqtlarida rasmlar chizarkan. Uning chizgan rasmlarini bir ko'ring-a, balki sizga tanish qahramonlar chiqib qolar...



Hozir o'sha o'rgatgani esimdan chiqib qolibdi. Ikkala qanotini sharaqlatib ochib yubordim. Xayriyat, xayriyat-ey, Ahmadqul bobom ekan. Ahmadqul bobo, deb oyoqlaridan mahkam quchoqlab yig'lab yubordim.

– Iye-iye, nima bo'ldi, boyvachcha o'g'lim, – ulog'imgacha engashib so'radi Ahmadqul bobom.

– Bobojonim o'lib qolyapti, – deya battar yig'ladim, – o'laman, sizlar yolg'iz qolasizlar, dedi. Hozir aytdi shu so'zlarni.

Ahmadqul bobom qiyiqda bir narsa tugib kelgan ekan, ushla-chi, deya uzatdi-da, meni bir chekkaga surib, o'zi ichkari hovlimizga jadal kirib ketdi. Enajonim bemahalda ko'cha eshik hech ochiq qolmasin, deb o'rgatardi. O'sha esimga tushib berkitib, oldin zanjirni osdim, keyin tanbasini ham tirab qo'ydim-da, qani, qiyiqda nima bor ekan, deya ochib ko'ra boshladim. Anor, uzum, voy, qanday yaxshi-ya, oh-oh, husayni uzum kirsillab turibdi deng. Uch-to'rt donasini darrov og'zimga solib, kirsillatib yeb oldim. Shu bobom o'zi yaxshi-da, yo'q-yo'q, uzum olib chiqqani uchun emas, uzum o'zimizda ham bor, menga o'xshagan bolalarni suygani, erkalagani uchun yaxshi. Hovlilarida o'ntacha bola bor. Men kirmsam, o'n bitta bo'lamic. Hammamizni cho'ntagimizni to'ldirib yong'oq solib beradi. Bir marta enam ikkovimiz mehmonga chiqqanimizda, Hayitvoy bilan meni kurashtirib, kim zo'r chiqsa, o'shani yelkamga mindiraman, dedi. Ikkovimiz tengdaniga gupillab yiqilgai edik, ikkovimizniyam yelkasiga mindirib, yumshoq kigiz to'shalgan uyda ot bo'lib kishnab, oyog'ini osmonga otib, bizni rosa qiqirlatib kuldirgan. Goho ko'chada o'ynab turganimizda o'tib qolsa:

Pakana boba,

Chakana boba,

Mayiz boba,

O'rik boba,

### Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

– deb masxara qilsak ham, hu senlarni, hozir quloqlaringni kesib olmasammi, deydi-yu, qulog'imizni ikki qo'llab berkitib qochganimizda, orqamizdan quvlamaydi. Kulib turaveradi. Uzoqqa borib olib, yana:

Anor boba,

Behi boba,

Qovoq boba,

Tovoq boba,

– deb irg'ish-

laymiz. Nega desan-

giz, shu bobomiz

chindan ham paka-

na, bo'yi qishlog'i-

mizdag'i hamma bo-

bolarnikidan past,

yoniga pichoq osib

yuradi-yu, o'sha pi-

choqning qini tovo-

niga tegib turadi.

Meva tugilgan

qiyiqni qaytadan

bog'lay olmay, shundayligicha ko'tarib ichkari kirsam,

Ahmadqul bobom o'zimning bobomning o'ng tomoniga

o'tirib, chap qo'lini uning peshonasiga qo'yib, enamga qarab

gapirayotgan ekan:

– O'rtoq'imning tobi qochib qolganini ertalab eshituvdim. Ana chiqaman, mana chiqaman, deyman, qayda. Endi jo'nayotgan edim, kampir picha o'tiri yorib bering, deb qoldi... Ol, o'g'lim, uzumdan yeyaver, senga olib chiqdim, – Ahmadqul bobom o'zim mo'ljallab qo'limni cho'zsammi, cho'zmasammi, deb turganimda, katta bir boshni menga uzatdi. Yana so'zida davom etdi: – O'tinni yorib bo'lib, mollarga xashak ham solib qo'ya qolay deb



## BETOBLIK

### Xudoyerdi TO'XTABOYEV

og'ilxonaga kiruvdim, ana bu xushxabarni qarang, katta qashqa qo'yimiz tug'aman deb turibdi-ya!

– Eson-omon qutulib oldimi, axir?! – shoshilib so'radi enajonim.

– Yaratganga shukur, – dedi Ahmadqul bobom ikkala qo'li bilan soqolini silab, – yana tag'in egizakligini aytmaysizmi!

– Voy xudoyerim-ey, – xursand bo'ldi enam.

– Ikkoviyam erkak deng!

– Xudo beraman desa, shu-da.

Enam o'rnidan turib, o'choqqa o't qalay boshladi. Ahmadqul bobom bir narsalarni pichirlab, yakka o'zi fotiha o'qidi-da:

– Obbo, o'rtoq-ey, burgaga teptirib olibsan-da! – deb so'radi bobojonimdan.

– Imm-mm, – deb qo'ydi bobom.

– Lekin, o'rtoq, o'laman deb mana bu o'g'limni chakki qo'rqtisban, hali-beri o'lmaysan, seni o'limga topshirib qarab turmaymiz, rahmatli otang Hojimat amakim sakson yoshida ham uloq chopardi, otning belini bukib yuborardi, to'qson yoshida boqqa chiqib, kunda kavlardi. Seni qarayu. Yetishga kirar-kirmas o'laman, debsan-a. Sen o'lsang, Robiyabibining ahvoli nima bo'ladi, mana bu ko'zni, mo'ltillatib turgan boyvachcha o'g'limni kimga qoldirib ketmoqchisan? Men-chi, sensiz, bilib qo'y, o'rtoq, bir kun ham yashay olmayman... Ha, o'sha seni... Boshingni ko'tar, mana bu uzumdan yegin, esingdami, ko'chatini o'zing beruvding.

(Davomi bor.)

## O'ZBEK DAVLATI

Azim SUYUN

Bir kam dunyo butundir, butun,  
Yuraklardan yechildi tugun,  
Ko'ngillar shod, chehralar gulgun,  
Mustaqillik – Ollohnem'ati,  
Yashna, yuksal, O'zbek Davlati!

Qarg'a, zog'lar solmagay soya,  
Orzularga yo'qdir nihoa,  
Avlodlarga boqiy hikoya,  
Sharaflidir inson mehnati,  
Yashna, yuksal, O'zbek Davlati!

Jahon bo'yab ko'chmoqda shoning,  
Muqaddassan – haloldir noning,  
Farzandlar – qilich, qalqoning.  
O'zbekiston – olam jannati,  
Yasha, yuksal, O'zbek Davlati!

### BILIMINGIZNI SINAB KO'RING:

1. Quyidagi misollarga tushirib qoldirilgan sonlarni qo'yib chiqing:

30+...=45	70-...=35
50+...=80	65-...=55
23+...=46	22-...=15
35+...=50	34-...=20

2. «Sholgom» ertagi qahramonlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) chol, kampir, nabira, mushuk, kuchuk, sichqon;
- B) chol, jodugar, kuchuk, ot, kampir;
- C) dev, kampir, mushuk, sichqon, jodugar;
- E) boy, chol, dev, yalmog'iz, kuchuk.

3. Quyidagi hikmatli so'zni davom ettiring va ma'nosini bizga maktub orqali yo'llang:

«Qarisi bor uyning ... bor».

- A) nabirasi;
- B) qizi;
- D) parisi;
- E) o'g'li.

# YURAK O'RTASIDAGI XITOB

Ummim yo'llarda, safarlarda, yaxshilar orasida o'tmoqda. Har safar yaxshi insonlarga ergashib, ulardan hayotning ma'nisini izlayman. Bu safar elimizning ardoqli qizi – Tursunoy Sodiqovaga hamrohlik qilishga to'g'ri keldi. Opa bilan Samarqandga bordik. Kun sovuq, aksiga olib, borguncha mashinamizning pechkasi ishlamadi. Lekin maqsadimiz issiq, taftli ediki, uning harorati bilan yonib borardik. Ulug' shahar ostonasiga yetguncha suhabatimiz bugungi yoshlari, ularning ertasi haqida bordi. Bizdan oldingi ulug'lardan tortib, oddiy kosibgacha o'z bolalari, millati, ertasi haqida bosh qotirgan. Albatta, bir-ikki kishining nafasi ostonadan nariga o'tmas, ammo hammamizning maqsadimiz bir nuqtaga qaratilar ekan, maqsadga erishish mumkin.

Opaning gaplarini tinglayman-u, xayolim Samarqandda. Shahar viloyat Axborot kutubxona markazida bizni bolalar va o'smirlar kutishmoqda. Vaqtida yetib borganimiz ma'kul.

Bolalarni intiq qilishdan yomoni yo'q. Onam, bolani kuttirib qo'ymaslik kerak, o'ksib qoladi, deydilar.

Shaharga ko'zlaganimizdan anche



oldin – soat o'narda yetib bordik. Amir Temur hazratlarining ulug'vor haykali yonidan o'tib, viloyat Axborot kutubxona markazida to'xtadik. Bizlarni Samarqand viloyat hokimi o'rinnbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisasi Gulnora Shodiyeva, madaniyima'rifiy ishlari bo'limi boshlig'i Xo'jaqul Muhammadiyev hamda Axborot kutubxona markazi direktori Shahodat Ahmedovalar kutib olishdi. Kutubxona zali bir zumda yoshlari bilan gavjumlashdi. Uchrashuv samimiy boshlandi. Ororda yengil hazil-mutoyibalar, do'stona gurunglar ham bo'lib turdi. Ayniqsa, yoshlarning savollari ko'pedi. Bu savollarning bari millat, uning buguni, ertasi haqidagi bo'ldi. Eng muhimmi, bu ularning har biri bilimi, iqtidorli, qiziquvchan, Vatanni ardoqlovchi yigit-qizlar edi. Qaysi biri Vatan haqida, boshqasi til to'g'risida, yana biri onanining mehrini vasf etdi.

Tursunoy opaning «O'zbekiston» nashriyotmatbaa ijodiy uyi tomonidan chop etilgan «Atirgul isi» asari haqida ham juda qiziqarli savol-javoblar, bahsmunozaralar bo'lib o'tdi. Qisqasini aytganda, mazkur uchrashuv yoshlarda juda katta taassurot qoldirdi.

## SHAHODAT AHMEDOVA:



3

– Men bugungi salohiyatlari yoshlrimizni ko'rib, behad quvonaman. Markazimizda bunday uchrashuvlarni tez-tez o'tkazib turamiz. Tursunoy opa bilan bo'lgan uchrashuv, o'zlarining ko'rdingiz, shaxsan o'zimda katta taassurot qoldirdi.

– O'quv yurtlari bilan aloqalar o'rnatilganni?

– Albatta. Bugungi kunda viloyatimiz bo'yicha 87 ta akademik-litsey va kollejlardan qoshida Axborot-resurs markazlari ishlab turibdi. Yana bir qancha o'quv yurtlari, bog'chalar bilan ham tadbirlar o'tkazib turamiz.

## UCHRASHUVDAN KEYINGI SUHBAT:

– Tursunoy opa, Siz voiz ayolsiz. Tarixdan ma'lumki, voizlar xalq ichida yurib, odamlarni ma'rifatga, komillikka chorlaganlar.

– Siz ko'nglimdagagi gaplarni eslatdingiz. Haqiqatan ham, jamiyatga voizlar kerak. Qaniydi, yonimda yana to'rt-beshta voiz bo'lsaydi. Tarixda ham voizlar ko'p o'tgan. Masalan, Husayn Voiz Koshifiy. Ular qoldirgan asarlar juda mashhur. Bu to'g'rida ko'proq yozishingiz kerak. So'z – qudratli quroq. Yoshlarimiz so'z qudratiga ham ega bo'lishlari kerak. Chunki kelajak ularniki. Bir so'z bilan juda katta yutuqlarga erishildi. Shu bois ham qadimda Yunonistonda notiqlarga, voizlarga juda katta e'tibor berilgan. Ayniqsa, shu kunlarda yoshlari orasida bo'lib, Vatan, el-yurt to'g'risida, komillik, iymonli bo'lish haqida to'g'ri va samimiy fikrlarni aya olishimiz kerakki, buning ahamiyati juda katta.

– Sizingcha, voiz kim?

\*\*\*

Oloy malikasi deya e'zoz etilgan, «general» unvoniga sazovor bo'lgan Qurbonjon dodxonning o'g'lini osib o'ldirishga hukm etdilar. Dor qurilgan, hech yig'ilмаган олomon yig'ilgan, hammaning holatida muvozanat yo'q, dodxoning holi endi ne kechadi degan o'y!

Shu payt uzoqdan chang ko'tarilib, bir otliq uchib kela boshlaydi – Qurbonjon momo! U nafsi ichiga tushgan olomonni yorgancha to'g'ri dor ostiga keldi va bolasiga yuzlanib: «O'g'lim, shahid ketish bizga merosdir!» – dedi va shart jilovni tortib, otning boshini orqaga burdi-da, qanday kelgan bo'lsa, shunday maydonдан yelib chiqib ketdi.

Yo Rab, uni nedan yaratding?! Bu kichkina Jon bu qadar qodirlikni qanday ko'tardi? Bu zotni ko'ryapsizmi? Dor ostidagi bolasining ko'ziga qarab turib, rizolik berolgan ayol bu!

– Voiz – tabib, uning diplomi bo'lmaydi. U so'z bilan insonlarga mehr beradi, ularni to'g'ri yo'lg'a boshlashga harakat qiladi.

– Uchrashuvda nimalar esingizda goldi?

– Samarqand – ulug' shahar. Men bugungi uchrashuvda ana shu muqaddas manzilning qudratli yoshlarni ko'rdim. Bu narsa meni juda quvontirdi. O'zbegimning yangi avlod shakllanmoqda. Bu avlod elimizning shon-shuhratini yana-da baland ko'tarishiga ishonaman.

Quyida Tursunoy Sodiqovaning asarlaridan olingan parchalar bilan tanishasiz:

\*\*\*

Hammamiz unutayozgan yana bir narsa haqida gapiray: bu sandal, Toshkent shevasida «tancha»dir... Sandal tevaragida o'tiramiz. Onam chopon qaviyidilar. Sandal ustidagi katta patnisda turshak, shaftoli qoqi va mayiz. Qo'l-oyoqlarim ko'rpaning ichida mazza qiladi. Dimog'imda muzday toza havo. Derazada pag'a-pag'a yog'ayotgan qor. Dadajonim esa berilib «Yusuf va Zulayho»ni o'qib beradilar... Ayrilganim – qo'sh qaldirg'ochlarimning tumshuqlaridan don yeb turgan baxtiyor palaponligim ekan, u damlar!.. Sandalni bolaligimni eslatgani uchungina tilga olmayapman. Shuning uchunki, uning qadri ko'p o'tayotir. Ne-ne insho'otlarni qurishni uddalagan, o'zbek nima uchun qishni sandalda chiqarar edi? Chunki u mutafakkir Sharqning bolasi – tanni chiniqtirishni, kasalning oldini olishni, davolashning eng odmi, oson yo'llarini bilardi. Astoydil eslab ko'rsam, bolaligimizda atrofdagi kelin-kertaklarning, katta-kichikning hadeganda kasalxonaga yotaverGANI yoki muolajaga qatnaganini bilmayman. Inson oyog'ining tagida tanadagi a'zolarga bog'langan 20 ta nuqta borligini hisobga oling-da, sandalga baho beravering!



## GAVJUM SAROV

Keyingi paytlarda Respublika o'quvchilar saroyi o'quvchi-yu o'qituvchilar hamda kutubxonachilar bilan yana-da gavjumlashib qoldi. Sababi, bu maskanda O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tizimidagi nashriyotlar tomonidan chop etilayotgan darsliklar bilan birga badiiy asarlar ko'rgazmalari uyuşhtirilyapti, shoir va yozuvchilar, kitob mualliflari bilan uchrashuvlar tashkil etilyapti.

Yaqinda bo'lib o'tgan ajoyib ijodkor Go'zalbegim va noshir Nazira Jo'rayevalar bilan bo'lgan uchrashuv ham Hamza tumanidagi 198-maktab, Toshkent tumanidagi 15-, 16-, 17-, 22-, 23-maktablarning o'quvchi va o'qituvchilar yodida uzoq vaqt saqlanib qolsa, ajabmas.

Kitob eng yaqin do'stimiz. Uni qancha ko'p o'qisak, bilimimiz charxlanadi, so'z boyligimiz ortadi.

Shunday ekan, bunday kitob bayramlarining tez-tez o'tkazib turilishi biz uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Dildora RO'ZIMAHAMADOVA

Aziz o'quvchilar!  
Tahririyatimizga Sizlardan ko'plab maktublar kelmoqda. Ushbu maktublarda tengdoshlaringiz o'z ijodlaridan namunalar yuborish bilan cheklanmay, ustozlari, maktablari haqida ham yozib yuborganlar. Ana shunday maktublarning ayrimlarini e'tiboringizga havola qilmoqdamiz.

## TA'MIRDAN CHIQQAN MAKTAB

Men Guliston shahridagi 16-umumiyo'rta ta'lim maktabining 6-«G» sinfida o'qiyman. Bu yil maktabimiz ta'mirdan chiqqani bois, judayam o'zgacha tus oldi. Sinf xonalarimiz yorug', toza, saranjom-sarishtaligi bilan diqqatga sazovordir. Ana shunday ozoda sinflarda yuksak bilim sohiblari, ya'ni ustozlarimiz bizga astoydil ilm berib kelmoqdalar. Bundan tashqari, maktabimizda turli tanlovlardan fan olimpiadalarini muntazam o'tkazib turiladi.

Zuhra IRISMATOVA,

Sirdaryo viloyati

## BAYRAMGA AYLANGAN MUSOBAQA

Yaqinda maktabimizda 8-sinflar orasida musobaqa tarzida boshlangan tadbir savol-javoblardan so'ng, she'riy aytishuvga aylanib ketdi. Tadbirda Muzaffar Sapayev va Nodira Egamberdiyeva rahbarlik qilgan ikki guruh o'quvchilari ishtirot etdilar. Musobaqa so'nggida maktabimizning ist'e'dodli o'quvchilari ishtirotida konserdasturi bo'lib o'tdi.

Fazilat RAHMATULLAYEVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 45-umumita'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

## BILIM MASKANIDA FAN OYLIGI

Bizning 12-umumiyo'rta ta'lim maktabimizda ona tili va adabiyot fanlari oyligi o'tkazilmoqda. Ushbu fanlardan dars beradigan o'qituvchilarimiz zimmasiga yuklangan vazifalarini a'lo darajada amalga oshirmoqdalar. O'quvchilarni o'z fanlariga yana-da qiziqtitirish maqsadida badiiy ko'rgazmalar tashkil etishdi. Ko'rgazmaga referatlar tayyorlandi va shoirlarimizning asarlari, ularning buyuk siymlari ham aks ettirildi.

Bundan tashqari, «Ona tili va uning bebafo sehri» nomli kecha ham bo'lib o'tdi. Kechada maktabimizning 11-«A» va 11-«B» sinf o'quvchilari ona tiliga bag'ishlangan, Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etishdi. Buyuk yozuvchimiz Abdulla Qahhor ijodidan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Madina MAMAJONOVA,

Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi 12-maktabning 11-«A» sinf o'quvchisi

Muxbir safardan qaytdi

Erta tongda tur, qilasan huzur.

Sog'lim yurak deng,  
Fazodan ham keng.

Vaqtida orom, etadi sog'lim.

17 – 23-dekabr  
Tong yulduzi 2007

# SIRDARYO VA JIZZAX BO'YLAB...

## «YOSHLAR YILI» MUBORAK BO'LSIN!

Sirdaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasiga kirib borganimizda, boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinsbosari Zaynab opa Xudoyorova ochiq chehra bilan kutib oldilar. Bolajon rahbar avvalo, o'lkamizga yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bilan yurtimiz yoshlari chon dildan qutladi. Viloyatda 305 ta umumta'lim maktablari bo'lib, ularda olib borilayotgan «2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlanitirish davlat umummilliy Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 321-soni qaroriga muvofiq, jami 272 ta, shundan 8 ta yangi qurilish, 86 ta kapital rekonstruksiya, 109 ta kapital hamda 69 ta joriy ta'mir rejasiga kiritilganini ayтиб o'tди.


Shuningdek, umumta'lim maktablarimizni jihozlar, zamonaviy o'quv laboratoriya asbob-uskulunalar, kompyuter texnikasi va sport anjomlari bilan ta'minlash bo'yicha ko'plab ishlar bajarildi. Shu kunga qadar Dasturga kiritilgan 29 ta umumta'lim maktablaridan Mirzaobod tumanidagi 18-, Guliston tumanidagi 11- va Boyovut tumanidagi 39- umumta'lim maktablari kompyuter texnikasi bilan to'liq ta'minlandi.

Ayniqsa, qishloq maktablarimiz shaharnikidan qolishmayapti.



Sirdaryo viloyatining 305 ta umumta'lim maktablari 2006-2007-o'quv yilda 140990 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya olmoqda. Ta'lim o'zbek, rus, gozog, tojik tillarida olib boriladi.

## SARDOBANING SARDORLARI



Guliston shahridan viloyatning chekka hududlarida joylashgan Sardoba tumanidagi Hamid Olimjon nomli 12-maktabga kirib borganimizda, ko'nglimizni ajib bir iliqlik chulg'ab oldi. Zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan, cho'l hududidagi ushbu maskanning qandaydir jozibasi, ohanrabosi bordek edi.

Bu yerda 688 nafar o'quvchi bilim oldi. Biz maktabga tashrif buyurgan kuni «Baxtimiz qomusi» nomli tadbirni kuzatish uchun barcha o'quvchilar faollar zaliga shoshayotgan ekanlar.

Maktabning ilmiy bo'lim mudirasi Saodat Sheraliyeva o'quvchilar kabi beg'ubor ustoz ekan. U 2005-yilda joriy ta'mirdan chiqqan maktabini asrab-avaylashda o'quvchilarga o'nak ekanligini ham bilib oldik. Ma'nayiyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinsbosari Bahiriddin Yusupov maktabda o'tkazilayotgan har bir tadbiriga bosh-qosh. Sinf xonalar, maktab oshxonasi, yo'laklaridagi, ayniqsa, maktabning kiraverishidagi naq 30 tadan ziyyod xona gullarining gurkirab o'sib turishi, o'quvchilarining tabiatga bo'lgan mehridan, qolaversa, ularning odob va intizomidan so'zlab turardi.

Bu maktabda talabchan, bilimdon o'quvchilarning ko'pligiga havas qildik. Har biri haqida to'qinlanib yozgimiz keldi. Ayniqsa, 23 yildan beri kasbini sevib kelayotgan oliy toifali rus tili o'quvchisi Zulfiya Kamolova hamda tajribali o'quvchi Diloran Tojievaniyan har bir darsi go'yo bolalar uchun san'at asariga teng keladi, desak aslo mubolag'a emas.



## SAKURA – MAKTAB BOG'IDA

Maktabimizda go'zal manzara yaratish uchun 2001-yildan boshlab bog'lar barpo etdi. Hozirda «Ilk qadam», «Bitiruvchilar bog'i» va «Umid nihollari bog'i» mizda 350 dan ortiq mevali, 100 dan ortiq manzaralari daraxtlar bor.

Yaqinda Sayhunobod fermerlar uyushmasi tomonidan maktabimizga Yaponiyadan keltirilgan 10 top Sakura daraxtining ko'chatini ekdi. Ustozlarimizning aytishlaricha, Sakura daraxti bizning iqlimiham ham bemalol ko'payar ekan. Bog'larimiz qatoriga «Do'stlik bog'i» qo'shilganidan xursand bo'ldik.

Norgobil BO'RIBOYEV, Sardoba tumanidagi 12-maktabning 3-«A» sinf o'quvchisi

Viloyatda 2623 ta fan to'garaklariga jami 58850 nafar, 570 ta «Ilk to'garaklarga 15851 nafar, 416 ta kasb to'garaklariga 18749 nafar o'quvchilar jabb qilingan.

## «UMID NIHOLLARI»DA BIRINCHIMIZ

Bilim maskanimizda sportga katta e'tibor beriladi. Ochiq va yopiq sport maydonlarimizda yetarli jihozlar bor. Tuman, viloyat va respublikada o'tkazilayotgan sport musobaqalarida faol ishtirok etamiz.

Mening boks bo'yicha champion bo'lishimda albatta maktabimizning jismoniy tarbiya o'quvchisi Sherzod Ibragimov va boshqa murabbiylarning hissasi katta. Bizning maktab o'quvchilarini voleybol bo'yicha tumanda birinchi o'rinda turadi. 2009-yili viloyatimizda «Umid nihollari» musobaqasi o'tkazilishi bizni yana-da qovontirayti. Hozirda ushbu musobaqaning tuman bosqichida 5-7-inflar o'ttasidagi bellashuvlari yakunlandi. 8-9-sinflar o'ttasidagi bosqichi esa 2008-yilning yanvar oyidan boshlanadi. Albatta biz sardaboliklar musobaqalarda birinchi bo'lishni niyat qilyapmiz.

O'sarbek YAHOYOV, 12-maktabning 9-sinf o'quvchisi



Bolalar, xabaringiz bor, kuni kecha muhtaram yurtboshimiz 2008-yilni «Yoshlar yili» deb e'lon qildilar. Biz bu xabarni

Sirdaryo viloyatida xizmat safarida bo'lgan chog'imirizda, oynayi jahon orqali eshitib, qalbimiz yana-da g'ayrat-u shijoatga to'ldi. Sababi, safar davomida yurtimiz yoshlari bilan uchrashib, ularning yutuq va muammolarini o'reganish, viloyat yoshlarining dunyolarga sig'mas orzu-havaslarini gazetamiz sahifalarida yoritish edi.

Qishning sovuq kunlariga ham parvo qilmay, ko'nglimizni egallab turgan yop-yorug' yog'dular bilan yoshlar shijoatiga, olam-olam niyatlariga sherik bo'lgimiz kelardi.

Sirdaryo viloyatining 305 ta umumta'lim maktablari 2006-2007-o'quv yilda 140990 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya olmoqda. Ta'lim o'zbek, rus, gozog, tojik tillarida olib boriladi.

## BOLALIKDAGI DO'STIMIZ

Jizzax viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Islam ANORBOYEV:

-Bugungi kunda viloyatimizda 237473 nafar o'quvchi bilim oladi.

Ular uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilyapmiz. Mazkur yilda 109 ta umumta'lim maktablarini 540 jamlanma o'quvchilar partasi, 540 ta sinf doskasi, 1260 ta o'qituvchilar stol-stoli, 3960 ta kitob javonlari, 73 ta fizika, 18 ta kimyo, 18 ta biologiya laboratoriya jihozlari va 73 ta sinf kompyuter texnikalari hamda 48 jamlanma sport zallari anjomlari bilan jihozladik.

Bundan to'rt yil avval viloyatimiz bo'yicha bor-yo'g'i 15 ta umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter texnikasi bilan

ta'minlangan edi. Bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 242 ta maktabga yetdi.

2007-yil viloyatimiz o'quvchilar uchun omdali keldi. 12 nafar o'quvchimiz fan olimpiadalarining Respublika bosqichida ishtirot etdi. Shuningdek, o'quvchilarimiz ko'rik-tanlovlarda ham faol ishtirot qatnashishmoqda. «Prezident asarlari bilimdoni» ko'rik-tanlovida Zarbdor tumanidagi 2-iqtidorli bolalar maktabining 11-sinf o'quvchisi Elyor Sultonov, «O'yla, izla, top» televizion tanlovida Mirzacho'l tumanidagi 20-iqtidorli o'quvchilar maktabi jamoasi g'olib deb topildi. «Yosh kitobxonasi»ning Respublika bosqichida G'allaorol tuman o'quvchilarini birinchi o'rinni qo'liga kiritdilar.

«Tong yulduzi» gazetasi bizning bolalikdagi do'stimiz. Istardimki, bolalar va o'smirlar nashri o'zingin rang-barang sahifalar bilan viloyatimiz o'quvchilarini yana-da jaib etsa...



Jizzax viloyatida kapital ta'miranadigan 253 ta maktabdan 137 tasining bino va inshootlari to'liq ta'mirdan chiqarildi.

## «MUNISDEK MEHRIBON VATANING – ONANG»



Jizzax shahrida beixtiyor peshtoqiga 29-«Mehrbonlik uyi» degan yozuvga ko'zingiz tushadi-yu, akademik-shoir G'afur G'ulomming yuqoridaq satralari ko'nglingizga quyilib kelaveradi.

Chindan ham, «Mehrbonlik uyi»ga kirib borganimizda, o'zimizni fayzli bir xonadonda mehmom bo'lgandek his etdi. Saranjom-sarishta, turfa xil gullar, mebellar, darpardalar bilan bezatilgan xonalar va yo'laklarda mehr-oqibatning dunyosi bordek...

- Men maktabda a'lo baholarga o'qiymen. Istagim, butun dunyo bolalari bilimdon va albatta sog'lim bo'lsin.

Islom MAMATQULOV, 8-sinf o'quvchisi

nafarini qizlar tashkil qiladi. Ular 4-5-maktablarda tahsil olishadi.

Ushbu maskanda tarbiyalanayotgan har bir o'g'il-qiz avvalo oilaviy hayotga tayyorlanadi, ularning kasb-hunarga oid qobiliyatlarini aniqlanadi. Jumladan, «Yumshoq o'yinchoqlar», «Yosh kulolar», «Sartaroshlar», «Musiqachilar», «Tikish» kabi to'garaklarida o'quvchilar gavjum.

Ko'zimiz quvhab, ko'nglimiz yashnab har bir xonalarni aylanib, bolajonlar bilan suhbatlashar ekanmiz, o'zlariga yaratilgan shart-sharoitlardan quvonganini ularning yuz-ko'zlaridan anglesh qiyin emasdi. Xuddi oиласи kabi imkoniyatlar yaratib bergan bu dargohning imtiyozlaridan ham tarbiyalanuvchilar bahramand bo'lmoidalar. Biz doimo «Mehrbonlik uyi»da nimadir yetishmaydi, deyishga o'rganib qolganimiz boismi, bu yerda darsdan keyin dam olib, xohlagan to'garagida ish bilan mashg'ul bo'lgan bolalardan faqtagina ona menehri qidirdik, xolos...

Bir-biridan shinam va ozoda yotoqxona-yu to'garak xonalari va sport zalida, kompyuter xonasida-barcha-barchasida tarbiyalanuvchilar band. Opalari Nargiza va Ozoda Elmurodova qatorida 9 yoshli Soyibjon ham matoga munchoq tikishga yordamlashayotgan ekan.



- «Mehrbonlik uyi»da tashkil etilgan jeet kin do sport turi bilan shug'ullanaman. Murabbiyim To'yichiboy O'rolovdan sport sirlarini o'rgandim. Yaqinda Buxoroda bo'lib o'tgan musobaqada qatnashidik. Maqsadim, champion bo'lish.

Husan JAMOLOV

- U kam sportga qiziqsas, men ijtimoiy fanlarga qiziqaman. Ayni paytda huquq fani bo'yicha jiddiy shug'ullanayapman. O'qituvchilarim Mayjuda Tilakova, Dildora Qobilovadan fanlarni chuqur o'zlashtirishda qo'shimcha mashg'ulotlar olib boryapman.

Hasan JAMOLOV, 9-sinf o'quvchisi



Safarimiz davomida yana ko'plab shahar-u qishloglarni kezdik. Sevimli shorimiz Po'la Mo'minning «Kimki harakatda, sog'lim albatta» degan purma'nou misralarini topib aytilganiga guvoh bo'ldik. Tengoshlarining hayoti, faoliyati bilan tanishib, ularga hayas qildik. Orzulari lim-lim bolalarga qanot bo'lib, har birining niyatini qog'ozlarga sig'diromadik.

O'z bilimi va iqtidori bilan ertasiga katta umidlar bilan boqayotgan furzandalarimiz bisyor ekan. Bejizga yurtboshimiz: «Mening eng katta ishonchim yosh avloddir. Zamonaviy bilinga ega, odobli, ilmli, ko'srang, havasing keladigan, barkamol va shijoatli farzandlarimizdir», deyga ta'kidlamaganlar...

Qo'shsahifani Feruza SOYIBJON gizi va Ma'murä YIGITALI qizi tayyorlashdi



## Va Bolakay haqida qissa

### 5. KARLSON MEHMONGA KELDI

Yoz kelib, matabda o'qishlarto'xtadi. Endi Bolakay ikki oyga qishloqqa, buvisinikiga ketishi kerak edi. Ammo oldinda bir chirolyi bayram bor, Bolakay uni tashlab ketishi mutlaqo mumkin emasdi. Bu qanaqa bayram ekan, desangiz, Bolakayning tug'ilgan kuni. Axir bir necha kundan keyin u roppa-rosa sakkiz yoshga kiradi. Bolakay bu kuni bir yildan beri orziqib kutadi.

Arafa kuni Bolakay Karlson bilan gaplashib qoldi.

— Ertaga mening tug'ilgan kumin, — dedi Bolakay, — seni ham o'tirishga chaqirardim-u, lekin...

Karlson astoydil xafa bo'ldi. U lablarini cho'chchatyrib, arazladi:

— Lekin-pekin yo'q. Agarda meni ham o'tirishingga aytmasang, bundan keyin sen bilan o'rtoqchilikni yig'ishtirib qo'yaman.

Bolakay o'ylanib qoldi. Oyisi bilan gaplashib ko'rmoqchi bo'ldi. Axir shunday topilmas og'aynisi — Karlsonsiz tug'ilgan kunni nishonlab bo'larkanni?

— Mayli, sen ham kel! — dedi Bolakay. Karlsonning ko'zlaricha qaqnab ketdi:

— Ziyofatda nima berishadi? Shirinlik ko'p bo'ladimi?

— Ko'p bo'ladi. Somsa, kulchatoy, muzqaymoy. Oyim ustiga sakkizta sham qadab, kattakon tort pishirmoqchi.

— Menimcha, sakkizta shamdan ko'ra, sakkizta kichkina tort pishirib, kattakon sham yoqib qo'yish kerak. Rosa sovg'a-salom ham olsang kerak-a ertaga?

— Bilmadim, — dedi Bolakay, — harqalay menga kuchukcha sovg'a qilishmasa kerak.

— Kuchukni nima qilasan? — dedi

Karlson, — men borman-ku, senga shuning o'zi yetarli emasmi?

— To'g'ri aytasan, senday do'stim borligidan xursandman.

— Unday bo'lsa, ertaga senga tegadigan konfetlarni menga tortiq qilasan. Tomga opchiqib, mazza qilib yeb yotaman.

— Kelishdik, — dedi Bolakay. — Ertaga konfetlarni hammasi seniki, — Bolakay ikki oy Karlsonsiz bir o'zi



qishloqda yashashini o'ylab, xomush bo'lib turgan edi, oxiri yorildi:

— Karlson, indinga men qishloqqa buvimmikiga ketaman. Yozni shu yodqa

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

— Aytavurlaring, mendan yashirma-laring, — dedilar-da, eshakdan tu-shib astoydil bo'lib bizga qarab qoldilar.

— Xotinlar qurut, qoq baliq obke deyishovdi, — dedim men chaynalib.

— Ha... — deb yuzlari yorishib ketdi tog'ani, — bilaman, boyaqish kelinchaklar aytishganda-a?..

— Ha, — deb bosh irg'adik.

— Bu savob ish... obkelib bersalaring, savobni tagida qolasanlar. Qaysi biring-nikida bor qurut bilan qoq baliq?

Biz yerga qaradik. Tog'a biznikida ham, Zayniddinnikida ham bunaqa narsa yo'qligini yaxshi bilardi. Shuning uchun ataylab so'radilar.

— Birovnikidan o'g'irlab obkelib bersanglar, chatoq. Ha, juda yomon! Chaqaloqlar naq o'g'ri-kazzob bo'lib tug'iladi-ya. O'g'irlikni oqibati shunaqa, yomon bo'ladi.

Mamariza tog'a bilan bog'liq yana bir qiziq voqeasi: tushlik dasturxonidan tolmachoya deb bir burda, yarim burda non orttirib qolardik. Har birimizning o'znon xaltamiz bo'lardi. Bir kuni meni nonim yo'qolib qoldi. Hali



Zayniddindan, hali qo'chqordan ko'rib jig'ilab tursam, Mamariza tog'a kelib qoldilar. Azza-bazza ularga arz qildim. Ular indamay o'z dasturxonlarini o'rtaga yoydilar. Unda yarimta obi non, bitta zog'ora non bor edi. Mendan bo'lak hamma o'z nasibalarini dasturxonga qo'yishdi.

— Mana shuncha nasiba, bunga qancha qorin to'yadi-ku, — dedilar kulib tog'a.

Men darrovdan dastyorlik qildim. Qora chovgumda shiypondan dog' suv olib keldim.

Tog'a belbog'laridan bir qaynatim choy olib soldilar. Keyin qaytarib-qaytarib rangini chiqardilar-da, kimning piyolasiga, kimning krujkasiga, kimning tovog'iga choy quyib berdilar. Rostdan ham qornimiz to'ysi. Non o'g'risi ham esdan chiqdi. Shu payt tog'a bizlardan non xaltalarimizni so'rab oldilar. Ulardan uchta bir xilini ajratib oldilar. Keyin ularni teskari ag'dardilar-da, marzadan tuproq olib sola boshladilar. Biz hayron bo'lib qarab turardik. Xaltachalar to'lgach, ularning bog'ini tortib bog'ladilar-da, dedilar:

— Yaxshilab eshitib olinglar, bolalarim, Xudoyimning marhamati keng, bandasini dunyoga keltirar edan, har biriga mana shunchadan bir xilda nasiba ularshadi. Birovni ortiq, birovni kam qilmaydi. Mana endi hozir bir xolis tajriba o'tkazamiz. Xaltachalarni uch tarafga qarab otinglar-chi.

Biz tog'aning aytganini qildik. Kim uzoqqa, kim yaqninga otdi.

— Endi olib kelinglar, — buyurdilar tog'a.

Obkeldik. Tog'a tuproq to'ldirilgan xaltalarini yaxshilab ko'zdan kechirdilar-da:

— Uchchoviyam bus-butun-a, — dedilar.

— Ha, bus-butun, — dedik barchamiz baravariga.

Tog'a endi bitta xaltachadagi tuproqni qolgan ikki xaltachaga tiqishtirib sola boshladilar. Xaltachalar tirsillab, og'irlashib ketdi. Og'izlari haligidek mahkam bog'landi.

o'tkazaman.

— Men ham buvimmikiga ketaman, — dedi Karlson undan qolishgisi kelmay, — men ham yoz bo'yish shu yodqa yuraman.

Bolakay, buving qayerda turadi, deb so'rashga ulgurmadi. Uni chaqirib qolishdi. Bolakay apil-tapil Karlson bilan xayrashib, oyisining oldiga shoshildi. Karlson ham jippi motorini vizillatib, uychasi tomon uchib ketdi.

Tong otdi. Ertalabdan uydagilari Bolakayni tabriklab, sovg'a-salomlar berishga kirishdilar. Turli xil moybo'yoqli qalamlar, kitob-daftар, o'ynichoq to'pponcha. Bolakayga, ayniqsa, to'pponcha yoqib qoldi. U birikki marta rezinka o'qli to'pponchan devorga, karavotga otib ko'rdi, zavqi kelib, irg'ishladi. Akasi Bosse bilan opasi Beton esa kattakon quti keltirib, Bolakayni oldiga qo'yishdi.

— Nima bu? — dedi havaslanib Bolakay.

— Avval sen qutidagi she'rnii o'qib ko'r! — dedi Beton. Bolakay yirik-yirik harflar bilan yozilgan she'rnii hijjalab o'qidi:

*Biz senga sovg'a qildik,  
Ajoyib bir kuchukcha.  
Birov bilan ishi yo'q,  
Tishlagani tishi yo'q.  
O'zi momiqday yumshoq,  
Ishonmasang, ochib boq!*

— Ana endi manovi ikkovini boyagidek otinglar-chi, — dedilar tog'a. Otdik.

— Endi olib kelinglar.

Ne ko'z bilan ko'raylikki, xaltachalar yorilib ketgan edi. Egalarining qovoq-tumshug'i tushib ketdi. Mamariza tog'a beparvo «shunday bo'lishini bilgan edim», degandek jilmaydilar. Xaltachalarni changini yaxshilab qoqdilar-da, do'ppilarining kizagidan igna-ip olib, yo'rmashga tushdilar. Biz hamon hech narsaga tushunmay tog'aning xattiharakatlarini qiziqish bilan kuzatib o'tirardik. Ular xaltalarni tikib, asliga keltirib, egalariga qaytardilar.

— Xo'sh, — dedilar tog'a bizga sinovchan qarab, — bildilaringmi to'rvalar nimaga yorilib ketdi?

— Tuproq ko'plik qildi-da, — bilag'onlik qilib hammadan oldin javob berdim men.

— Barakalla, — dedilar tog'aning chiroylari ochilib, — o'ng quloqlaring bilan ham, so'l quloqlaring bilan ham eshitib olinglar, birovning haqi birovga yuqmaydi, birovning nasibasi birovga botmaydi. Kimda-kim birovning moliga, birovning noniga ko'z olaytirsa, uning ham qorni mana shunaqa tars yorilib ketadi. Erta kunda o'z nasibasini ham yeyolmay to'ng'iz qo'padi.

Qoravoy aka deganning uyida Arkan degan yetim bola yurardi. Biz uni Arqon deb chaqirardik. O'shaning tusi birdan o'zgarib qoldi. Ko'zlarini olayib, bir shishindi-da, dod deb o'zini yerga otdi. Ma'lum bo'lishicha, nonni o'sha o'g'irlab yegan ekan. Endi qornim yoriladimi, deb qornini ushlab dodlaydi bola bechora.

— Tayba qildim degin, — dedilar tog'a unga.

— Tayba... tavba, — deya shosha-pisha ko'z yosolarini artdi Arkan.

(Davomi bor.)

UCHAR OTLAR  
BO'LGAN EDI...

Qissa



Erkin MALIK

6

Akmal juda yalqov bola. Lekin sho'xlik, to'polonchilikda uning oldiga tushadigani yo'q. Polvonligini aymaysizmi, o'zlashtirish, davomat bobida bir o'zi butun bir sinfnor qaraga tortib turadi.

Darslarga deyarli har kuni kechikib keladigan Akmal nima bo'ldi-yu, bir kuni barvaqtroq kelib goldi.



## «YOPIQ» TARBIYA

Qarasa, o'qituvchining stoli ustida sinf jurnali turibi, sinfdesa esa o'zidan bo'lak hech kim yo'q. Shoshib jurnalni ochdi-da, «adabiyot» deb yozilgan sahifadagi o'zining ismi-sharifi ro'parasiga «5» baho qo'yib oldi. So'ngra, hech gap bo'limgandek, sinfdan chiqib ketdi...

Adabiyot darsi boshlandi. O'qituvchi jurnalni ochdi-yu, Akmalning qatorida turgan «5» bahoni ko'rib:

— Akmal, senga qachon «5» qo'ygan ekanman-a? — so'radi ajablanib.

— Ustoz, o'sha kuni sizni aldadim, «5» bahoni o'zim qo'yib olgandim, — dedi gunohkorona bosh egib.

O'qituvchisi esa doimo a'lo baholarga o'qisagina, kechirishini aytdi.

Ustoz o'sha kuni Akmalning aynini aytib, hammaning oldida sharmanda qilganida, u bu darajaga yetmagan bo'larmidi!?

**Komila DEHQONOVA,**  
**O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov**  
**akademik-litseyi talabasi**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir tuyakash bo'lgan ekan. U har hafta tuyalariga meshga solingan suv ortib, cho'ponlarga tashirkana.

Bir kuni tuyakash suv olib ketayotganida, tuyasining oyog'i bir nimaga taraqlab tegibdi. Tuyakash borib qarasa, yerda kattakon bir xum yotgan ekan. Xumning og'ziga tiqilgan lattani olib qarasa, ichi to'la tilla emish. Tuyakash quvonib ketganidan suvni olib borishni ham unutib, yarim yo'ldan uyiga qaytibdi. Suvsiz qolgan cho'ponlar esa tuyakashdan xavotir olib, undan xabar olish uchun odam yuborishibdi. Haligi odam tuyakashning uyiga borsa, u choy ichib, yonboshlab yotganmish. Shunda haligi odam:

— Iye, soppa-sog' ekansiz-ku, bormay qolganingizga betob bo'lib qoldingizmi, deb o'yabmiz, — debdi.

— Ey, endi men sizlarga suv tashimayman. Chunki xazina topib oldim.

To p g a n tillalarim umrimning oxirigacha yetib ortadi, — deya maqtanibdi tuyakash.

Haligi odam cho'ponlarning boshqa tuyakash topishlari lozimligini aytibdi. Lekin tuyakashning xazina topib olgani haqida lom-mim demabdi.

Shunday qilib, tuyakashning huzur-halovati yo'qolibdi. Chunki haligi odam uning uyiga har kuni o'g'irlikka tushar, lekin tillalarni topolmay, quruq qaytaverarkan. Bu hol ikki-uch oy davom etibdi, nihoyat, o'g'ri niyatiga yetibdi. Tuyakashning va barcha oila a'zolarining oyoq-qo'llarini bog'lab, xazinani olib ketibdi. Ertasiga ertalab qo'shnilar kelib, ularning oyoq-qo'llarini bo'shatishibdi. Tuyakash bolalarini sog'-omon ko'rib quvonibdi va shunday debdi:

— Ey, shu xazinani deb yaqinlarimdan ayrilib qolay dedim-a. Mehnat qilib topilgan nonga nima yetsin?!

**Fazilat RAHMATULLAYEVA,**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi**  
**45-o'rta muktabning 6-sinf o'quvchisi**

— Ustoz, tunov kuni javob berganimda qo'ygandingiz-ku, — dedi u biroz dovdirab. «Hozir tomosha boshlanadi», ko'nglidan o'tkazdi Akmal va boshini egib turaverdi. Ikkichi Akmalning adabiyot fanidan «5» baho olishi sinfdoshlarini ham hayratlantirdi va «O'qituvchimiz nima derkin?» deya ustozning og'ziga qarashdi. «Juda yaxshi, Akmal, shunday harakat qilsang, sen ham a'lochi do'stlaring qatoridan o'rinn olasan», deya o'quvchilar hayratini yana-da oshirdi ustoz.

Akmal esa o'zini qo'yarga joy topolmay goldi, qilgan ishidan vijdoni qiyalndi. Nihoyat, bir qarorga keldi: darslarini puxta tayyorlab, namunali o'quvchi bo'lsa, o'qituvchisi ham kechirar...

Shu kundan boshlab o'qishga astoydil kirishdi. Baholari ham yaxshilana bordi. Uning harakatlaridan o'qituvchisi juda mammun bo'ldi.

Bir kuni Akmal darsdan keyin o'qituvchisidan kechirim so'radi:

Tim qorong'u kechani, Yoritib turardi Oy. Nuriga monanddir deb, Boqdim undagi chiroy.

Oyga termulib deyman, Nega yuzing to'la dog? Go'zal deyishar seni, Buyog'i bo'ldi qandog?

Oy xijolat bo'lganday, Menga qarab jilmaydi. Yuzga tortib bulutni, Gapirgani iyemandi.

Shunda oydin, oq kecha, Zulmat to'n kiyib oldi.



Oymomoning bir zumda, O'mni bilinib goldi.

O'z savolimga javob Topgandek bo'ldim shu chog'. Oy shunchalar dilbarki, Husn berar hatto dog'!

**Shohida TOSHPO'LATOVA,**  
**Toshkent Davlat Agrar**  
**universiteti qoshidagi**  
**akademik-litsey o'quvchisi**

## SHE'R YOZAR MITTI YURAK

Samolardan nur yog'ildi yo'limga, Sehrli bir qalam tushdi qo'limga, Ajib orzu urug' qadar dilimga, She'r yozar mitti yurak.

Orzularim bamisol keng osmon, Umidlarim ko'z quvnatar bir ummon, Shunday she'ki, xasta dillarga darmon, She'r yozar mitti yurak.

**Shahnoza G'ANIYEVA,**  
**Uchtepa tumanidagi**  
**116-maktabning 7-sinf**  
**o'quvchisi**

Kecha buvjonimning ukamga ertak aytib hayvonot bilan majoziy hamda maishiy turlarga berayotganlarini ko'rib, qanday qilib yonlariga bo'linarkan.

Buvjonim har bir turga mansub ertaklardan borib qolganimni, birgalikda ertak tinglab, shirin uyquga ketganimni sezmay qolibtan. Kap-katta qiz bo'lsam-da, bu ertakning tugab qolishini hecham istamasdim.

Biz bilamizki, ertaklar hayot haqiqatiga asoslangan, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo'g'rilgan, ibratli o'gitlar beruvchi og'zaki hikoyalardir. Ular qiziqarli syujetga ega bo'lishi

## ERTAKLAR ESHITGANMAN



va hayotiy udumlar orqali

yaratilishi lozim. Ertak ham eng qadimgi ommaviy janrlarning biridir. Uning paydo bo'lishida qadimgi urf-odatlar, marosimlar va afsonalar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Buvjonimning aytishlaricha, ertaklar XIV asrning XV asrning boshlarida yozib olina boshlangan ekan. Ular 3 turga — sehrli fantastik,

Bilamizki, ertaklar doimo yaxshilik bilan tugaydi. Biz ana shu ezgulikni tezroq kelishini, chuqurlikdan tuzishini kutamiz. Bir so'z bilan aytganda, ertaklar chiqaribgina qolmay, fikrlashi ga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy va salbiy qahramonlarning xattiharakatlari orqali nima yaxshiyu, nima yomonligini ajrata oladi.

Ertak tinglab, madaniy hordiq

chiqaribgina qolmay, fikrlashi ham o'rganamiz. Bilamizki, ertaklar doimo yaxshilik bilan tugaydi. Biz ana shu ezgulikni tezroq kelishini, chuqurlikdan tuzishini kutamiz. Bir so'z bilan aytganda, ertaklar

chiqaribgina qolmay, fikrlashi ham o'rganamiz. Bilamizki, ertaklar doimo yaxshilik bilan tugaydi. Biz ana shu ezgulikni tezroq kelishini, chuqurlikdan tuzishini kutamiz. Bir so'z bilan aytganda, ertaklar

Mafguna ESONOVA,  
O'zMU jurnalistika fakulteti,  
2-bosqich talabasi

## «SANGZOR» DA UCHRASHAMIZ

Jizzaxda bir maskan bor. «Sangzor» deb nomlangan ushbu maskanda har oyning birinchi shanbasida 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan ijodkorlar yig'ilib turishar ekan. Badiiy ijodga qiziqqan «Sangzor», klub a'zolari o'zlarining she'r-u hikoyalarini hali tafti ko'tarilmadan klub rahbari, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyati bo'limining mas'ul kotibi Turob Maqsudga olib kelib, ulardan foydali maslahatlar olishar ekan. Bu haqda Turob Maqsudning fikrlari bilan qiziqidik:

— «Sangzor» klub Yozuvchilar uyushmasi qoshida tashkil etilgan bo'lib, shu kungacha klub a'zolarining soni 110 nafarga yetdi. Ushbu klubga Samargand, Sirdaryodan ham ijodkorlar kelib qatnashishadi. Ushbu yig'ilishlarda she'r, hikoya yozishning qonun-qoidalari haqida ma'lumotlar beriladi. Ijodkorlar o'z ijodlarini o'qishdan oldin hazrati Navoiyning

g'azallaridan aytib, tahsil qilib berishadi. Bu doimiy an'anaga aylanib qolgan. «Sangzor» klubimizda ulug' shoir va yozuvchilar bilan ham uchrashuvlar bo'lib o'tadi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Usmon Azim bilan bo'lib o'lgan uchrashuvlar klub a'zolari qalbidan chuqur o'rinn olgan. Ijodkorlarimidan Shohida Mirzayeva, Dilfuza Mahkamova, Nasiba To'ychiyeva Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo'lganlar. Ma'mura Yoqubova, Dildora Sobirovalar esa yosh ijodkorlarning «Zomin» seminari g'olibi bo'ldilar. Klubimizga 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan ijodkorlarni taklif etamiz.

Turob Maqsud takliflaridan so'ng, «Tong yulduzi» xodimlari bilan birgalikda albatta Jizzaxga borishga va'da berdi. Klub a'zolariga esa «Sangzor»da uchrashguncha, deb qolamiz.

Gulyuz ORIFJONOVA

## TUYAKASHNING NONI

(Ertak)

yoniga qaytibdi va topishlari lozimligini aytibdi. Lekin tuyakashning xazina topib olgani haqida lom-mim demabdi.


Shunday qilib, tuyakashning huzur-halovati yo'qolibdi. Chunki haligi odam uning uyiga har kuni o'g'irlikka tushar, lekin tillalarni topolmay, quruq qaytaverarkan. Bu hol ikki-uch oy davom etibdi, nihoyat, o'g'ri niyatiga yetibdi. Tuyakashning va barcha oila a'zolarining oyoq-qo'llarini bog'lab, xazinani olib ketibdi. Ertasiga ertalab qo'shnilar kelib, ularning oyoq-qo'llarini bo'shatishibdi. Tuyakash bolalarini sog'-omon ko'rib quvonibdi va shunday debdi:

— Ey, shu xazinani deb yaqinlarimdan ayrilib qolay dedim-a. Mehnat qilib topilgan nonga nima yetsin?!

**Fazilat RAHMATULLAYEVA,**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi**  
**45-o'rta muktabning 6-sinf o'quvchisi**

## HAR NARSANING ZIDDI BOR



Ezgulikning, bunyodkorlikning ziddi buzg'unchilikdir. Dunyo har yetmish yilda turlanib turadi. Bunday paytlarda murg'ak qalblarning adashishi turgan gap.

— To'g'ri yo'lidan adashmaslik uchun nima qilmoq kerak? — so'radilar donadan.

U aytdi:

— Donolarning maslahatlariga quloq tutmoq kerak.

So'radilar:

— Ular nimalardan iborat?

— Ular uchtadir: birinchisi, yaxshi insonlarning yo'lini tutmoq; ikkinchisi, ota-onaning duosini olmoq; uchinchisi, el-yurtni sevib, oddiy odamlar kabi halol yashamoqdir. Ana shularga amal qilsangiz, buzg'unchilar safida bo'lmaysiz.

\*\*\*

— Eng yaxshi odatlar nechta?

— Eng yaxshi odatlar ko'p, ammo ular orasida kechirimli va mehribon bo'lish eng asosiyalaridir.

— Kimlar kechirimli va mehribon bo'la olishlari mumkin?

— Qalbidan yomonlikni quva oladiganlar.

## RIVOVAT

Falakning gardishi bilan sherlardan biriga lavozim tegib, bosar-tusarinib bilmay qoldi. Kattani katta, kichikni kichik

o'rniда ko'rishni unutib, yomon so'z va kaltakka zo'r berdi. Ayb qilish gunoh emas.

Bilmasdan xato qilib qo'ygan kishilar ming bor kechirim so'rasalar ham, pinagini buzmay ularni jazoga tortdi. O'z yaqinlariga mehr ko'rsatishni ham esidan chiqardi. Hatto nuroniq oqsoqollarning pand-nasihatlariga quloq tutmay qoldi. Bora-bora odamlar undan qo'rqaqidan va cho'chiydigan bo'lib qoldilar. Xullas, oxiri hamma undan bezor bo'lib, tezroq lavozimdan ketishini istay boshladilar. Bir kecha chaqmoq bo'ldi va uning uyiga o't tushib, yotgan joyida kuyib ketdi.

Kechirimli va odamlarga mehribon bo'la olmaydigan kimsaning umri ana shunday fojiali tugaydi.

Yaxshi do'sting ziddi g'animdir.

Dunyoda bitta ham g'animing bo'imasligi uchun kurashish kerakki, bu ulug' ezgulik va to'g'ri yo'l seni baxtga yetaklaydi.

Yaxshi do'st qanday topiladi, deb so'rasalar, aytqi, u beshta qoidadan iborat: birinchisi, do'stlikni qadrlay bilish kerak, chunki benuqson kishining o'zi yo'q, ayb qilsa, aybini kechira bil; ikkinchisi, qo'l bilan, til bilan bo'lsa ham do'stiga yordam berib turish lozim; uchinchisi, ularning ahvoidan xabardor bo'lib turish, to'uda ham, ayniqsa, azada uning yonida bo'lish; to'rtinchisi, yo'lidan adashsa, unga nasihat qilish; beshinchisi, yomonlik qilsa, malomat qilmaslik.

## Obuna – 2008

### «KITOB DUNYOSI» – HAR BIR MAKTABGA



o'qib bilish mumkin?

Bir necha yildan buyon respublikamizda nashr etilayotgan «Kitob dunyosi» gazetasi bunda Sizga yo'l keladi. Bu nashrdan Siz nafaqat nashriyotlarimizda, balki xorijda ham chop etilayotgan eng yangi, o'ziga xos darsliklar, o'quv yo'llanmalarni, ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy adabiyotlar bilan o'z vaqtida tanishib, xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

«Kitob dunyosi» har bir maktab, litsey va kollej kutubxonasida, sinfda bo'lishi koni foyda. U Sizga kitob mualliflari, taniqli adiblar, noshir va matbaachilar haqida to'liq ma'lumot beradi, nashr qilinayotgan yangi kitoblar bilan o'z vaqtida tanishtiradi.

Haqiqiy vatanparvar, bilimdon, komil inson bo'lay desangiz, «Kitob dunyosi»ga obuna bo'ling.

«Kitob dunyosi» indeksi – 238.



### Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'limagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:**  
**To'lqin HAYITOV**

Dizayner va sahifalovchi:  
**Elyor ESHICHANOV**  
Navbatchi:  
**Osoda TURSUNBOYEEVA**

Gazeta  
O'zbekiston  
matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

**TAHIRIR HAY'ATI:**  
Turobjon JO'RAYEV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMIU Bosh  
muharrir o'rinnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Manzilimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198,  
e-mail: tong1924@mail.ru  
**Tel:** 144-27-25 144-63-08  
**Tel./faks:** (99871) 144-38-10  
**Rassomlar:**  
Nodira MIRZAYEVA,  
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida  
chop etildi.  
Gazeta haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
**Adadi - 18363**  
Buyurtma N: J4433

## BUGUNNING



### «YANGI AVLOD» LARI

**Hayotdagи shiori:** qo'lidan kelgancha insonlarga yordam qilish.

**Yoqtirgan fani:** musiqa, adabiyot, tarix.

**Kitobi:** «O'zbek hikoyalari antologiyasi».

**Filmi:** «Sen yetim emassan».

**Sport turi:** tennis va suzish.

**San'atdan tashiqari qiziqishlari:**

bo'sh vaqtlarida tikish-bichish bilan shug'ullanishni yoqtiradi.

\* \* \*

**— Qaysi xorijiy tillarni o'rganasiz?**

— Ingliz, fransuz tillarini puxta o'rganaman.

**— Eng katta orzuwingiz?**

— Kelajakdag'i eng katta orzuim, yurtimiz bayrog'ini yana-da balandroqqa ko'tarilishiga o'z hissamni qo'shish, san'atimiz bilan qolaman.

xorijagi tengdoshlarimni lol qoldirish.

— «Yangi avlod» festivali sizda qanday taassurot goldirdi?

Men boshqa tengdoshlarimga ham ana shu festivalda qatnashib, ulkan muvaffaqiyatlarga erishishlarini tilab o'tish.

Bobur NAZARMUHAMMEDOV

## SKANVORD

Ehtiyoj	Dori miqdori	Savdo keli-shuvi	Hisob-dagi qiyosiy yakun	Shirinlik	So'z boyligi	Faxr
Ehtiyoj	Dori miqdori	Savdo keli-shuvi	Hisob-dagi qiyosiy yakun	Shirinlik	So'z boyligi	Faxr
Qon so'rur-chi					Odat	Pilla qurti tolosi
Oltin Tutqun				Katta farzand	Xona	Past tekislik
		Poytaxti - Gavvana			Sohmot donasi	Koinot jismi
«Tost» taxta	Tanga bosib chiqarish	Beruniy	Och-qich			Noknavi
Chidam	O'zbek mumtoz shoiri		Chiroy		Taqinchoq	
Lavozim		Dunyotomoni	Rangli metall			
Odam-zod	Ilk darslik	Samolyot turi		Ho'l meva	Ne'mat	Toshkentdag'i bozor
Farzandning farzandi					Sharsh	Sharm
Futbol qismi	Qisqa vaqt	Arab harfi				Pilla poya
		Afrika davlati				

Foziljon ORIPOV tuzdi